

O'zbekiston Prezidenti BAA delegatsiyasi bilan uchrashuvda ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlarini muhokama qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 24-mart kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suxayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori darajadagi mehmon BAA Prezidenti Shayx Xalifa Ol Nahayon, Abu-Dabi amirligi Valiahd shahzodasi, BAA Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni o'rinosari Shayx Muhammad Ol Nahayon va mamlakat Bosh vaziri, Dubay Amiri Muhammad Ol Maktumning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Vazir xorijiy biznesning mamlakatimizga bo'lgan katta qiziqishini yana bir bor tasdiqlagan Toshkent forumining muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan tabrikladi.

Uchrashuvda amaliy hamkorlikni, eng avvalo, savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika va transport sohalarida oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq kengaytirish istiqbolari muhokama qilindi.

"Yashil" energetika sohasidagi hamkorlik natijilari yuqori baholandi. Masdar kompaniyasi mamlakatimiz hududlarida fotoelektrik va shamol elektr stantsiyalarini qurish bo'yicha qator yirik loyihalarni amalga oshirmoqda.

Investitsion hamkorlikni kengaytirish va ustuvor tarmoqlarda yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun katta salohiyat mavjudligi qayd etildi.

Manba